



MIRZO ULUG‘BEK DAVRIDA YER EGALIGI VA AGRAR
MUNOSABATLARDAGI O‘ZGARISHLAR

Raximboyeva Dilafruz Ibrogim qizi

Toshkent davlat agrar universiteti

“Agroiqtisodiyot, logistika va xizmatlar” fakulteti

“Buxgalteriya” yo‘nalishi I-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Ostonov Oybek Aliqulovich

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyo hududida mavjud bo‘lgan Temuriylar davlatida agrar munosabatlar tizimi va uning iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda yer egaligining asosiy shakllari — davlat yerlari (amlok), iqto‘, vaqf va xususiy mulk tizimi — hamda ularning huquqiy-iqtisodiy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, soliq siyosati (xiroy, ushr va boshqa to‘lovlar), sug‘orish infratuzilmasining tiklanishi va takomillashuvi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘sishi kabi omillar ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari Temuriylar davrida agrar munosabatlarning tartibga solinishi davlat moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, markazlashgan boshqaruvni mustahkamlash va shahar hamda qishloq o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim omil bo‘lganini ko‘rsatadi. Maqola tarixiy solnomalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tayyorlangan.*

Kalit so‘zlar: *Temuriylar davlati, agrar munosabatlar, yer egaligi, amlok, iqto‘ tizimi, vaqf mulki, mulk yerlar, sug‘orish tizimi, xiroy, ushr, qishloq xo‘jaligi, moliyaviy barqarorlik, markazlashgan boshqaruv.*

Kirish. XV asrning birinchi yarmida Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida Movarounnahr hududida siyosiy barqarorlik va nisbiy iqtisodiy yuksalish kuzatildi. Ushbu davrda davlat boshqaruvi, moliya tizimi va yer munosabatlarida muayyan islohotlar amalga oshirildi. Agrar sohadagi o‘zgarishlar davlat



daromadlarini mustahkamlash, harbiy-siyosiy tizimni ta'minlash hamda shahar va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan edi.

Yer egaligining asosiy shakllari Temuriylar davrida, xususan, Mirzo Ulug'bek hukmronligi paytida yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bo'lgan: Davlat yerlari (amlok), amlok yerlari davlat mulki hisoblanib, ulardan tushgan daromad xazinaga kelib tushardi. Bu yerlar asosan soliq to'lovchi dehqonlar tomonidan ishlangan. Davlat yerlari moliyaviy tizimning asosiy manbai bo'lib xizmat qilgan.

Iqto' — harbiy va ma'muriy xizmat evaziga muayyan yerdan daromad olish huquqini berish shakli edi. Temuriylar davrida bu tizim muayyan darajada markaziy hokimiyat nazoratida saqlangan. Mirzo Ulug'bek davrida iqto' yerlarining merosiy xususiyati cheklanib, davlat nazorati kuchaytirilgani kuzatiladi.

Vaqf yerlari diniy muassasalar — masjid, madrasa va xonaqohlar ixtiyoriga berilgan bo'lib, ular soliqdan ozod qilingan. Bu yerlardan tushgan daromad diniy va ma'rifiy maqsadlarga yo'naltirilgan. Masalan, Ulug'bek madrasasi kabi ilmiy muassasalarning iqtisodiy ta'minoti ko'p jihatdan vaqf mulklari hisobiga amalga oshirilgan.

Mulk yerlari shaxsiy egalikda bo'lib, ular meros tariqasida avloddan-avlodga o'tgan. Bunday yerlardan davlat foydasiga soliq undirilgan.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida asosiy kuch dehqonlar hisoblangan. Ular yerni ijara asosida yoki davlat yerlarida ishlab, hosilning muayyan qismini soliq sifatida topshirgan. Ayrim hollarda ular yarim mustaqil jamoalar sifatida faoliyat yuritgan.

Mirzo Ulug'bek davrida soliq tizimi tartibga solinib, muayyan me'yorlar asosida undirilgan. Asosiy soliq turlari: Xiroq — yer solig'i; Ushr — hosildan olinadigan ulush; Zakot — mol-mulk solig'i. Soliqlarning miqdorini belgilashda yer unumdorligi va suv ta'minoti hisobga olingan. Bu esa agrar munosabatlarda muayyan adolat tamoyillarini joriy etishga xizmat qilgan. Temuriylar davrida yer egaligi shakllari (amlok, iqto', vaqf, mulk) huquqiy va ma'muriy jihatdan muayyan



tartibga solingan. Davlat yerlari hisobidan xazina daromadlari barqaror ta'minlangan.

Amir Temur tomonidan joriy etilgan boshqaruv tamoyillari, xususan, soliq va yer hisobini yuritish tartibi keyingi temuriy hukmdorlar davrida ham saqlanib qolgan. Bu haqda "Temur tuzuklari" asarida davlat yerlari va soliq siyosatiga oid qoidalar keltiriladi. Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri mamlakatda barqaror va adolatli soliq tizimini tashkil etish bo'ldi. Ulug'bek yaxshi anglaganki, davlatning mustahkamligi va farovonligi, avvalo, aholi mehnatining samaradorligi va soliq tushumlarining barqarorligiga bog'liq.

Movarounnahrda soliqlar tizimi murakkab va tabaqalashtirilgan ko'rinishga ega edi. Dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar va hunarmandlar kabi ishlab chiqaruvchi qatlam soliq to'lovchilar sifatida asosiy moliyaviy bazani tashkil etdi. Temuriylar an'alariga muvofiq, Mirzo Ulug'bek davrida ham yerga bog'liq asosiy soliq — xiroj saqlanib qoldi. Xiroj hosilga qarab natura yoki pul shaklida olinardi. Hosil unumdorligiga qarab obikor yerlardan xiroj hosilning 1/3 qismi (taxminan 33%), lalmikor yerlardan esa hosilning 1/6 yoki 1/8 qismi (ya'ni 16,5–12,5%) miqdorida belgilangan edi¹.

Temuriylar davrida xiroj, ushr va boshqa majburiy to'lovlar muayyan me'yorlar asosida undirilgan. Yer unumdorligi va sug'orish imkoniyatlari hisobga olingan holda soliq miqdori belgilangani dehqonlarning iqtisodiy barqarorligini saqlashga xizmat qilgan. Ulugbek davrida Samarqand yana ravnaq topdi. Bu davrda san'at va ilm-fan rivoji uchun shunchaki katta ishlar qilindiki, bu davrni «Samarqandning oltin davri» deb atay boshlashdi. U soliq siyosatida dehqonlardan olinadigan soliqlarni kamaytirdi va dehqonlar farovonligini oshirish imkoniyatini yaratdi. Tushumlarning qisqarishini esa tamg'a – hunarmand va savdogarlardan olinadigan yig'imni ko'paytirish hisobiga to'ldirdi².

¹ Sultonov F., Bozorboyev F. O'rta asrlar tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B. 428

² Мухаммаджонов А. Амир Темур ва Темурийлар салтанати. – Т.: Қомуслар бош тахририяти, 1994. – Б. 65.



Tarixchi va davlat arbobi G'iyosiddin Ali hamda boshqa muarrixlar asarlarida soliq tizimining tartibli yuritilishi davlat moliyaviy tizimini mustahkamlagani qayd etiladi.

XV asrda Mirzo Ulug'bek davrida iqto' tizimi ustidan markaziy nazorat kuchaytirilgani yer resurslarining parchalanishini cheklagan va iqtisodiy markazlashuvni ta'minlagan.

Movarounnahrda sug'orma dehqonchilik asosiy o'rin tutgan. Mirzo Ulug'bek davrida mavjud ariq va kanallar ta'mirlangan, yangi sug'orish tarmoqlari barpo etilgan. Bu esa yerlarning qishloq xo'jaligi aylanmasiga kengroq jalb etilishiga olib kelgan. Ulug'bek davrida ham mashhur bo'lgan Bog'i maydonda o'simliklar juda oqilona joylashtirilgan. Bog'cha nomi bilan ataluvchi bog' barpo etilishi ham Ulug'bek nomi bilan bog'lik. Temur buyrug'i bilan bunday bog'larning barpo etilishi faqat davomli harbiy yurishlardan so'ng dam olish va ko'ngil ochish joyi yaratish istagi bilangina bog'liq emas edi. Bu go'zal va ko'rkam bog'larni barpo etishda yurt obodonchiligi, bozorlarning arzon meva-chevalar bilan ta'minlash bo'lsa, uning siyosiy sabablari ham muhim edi. Bu yerda turli davlatlardan kelgan elchilar qabul qilinadi, ular yurtiga qaytgach, Temuriylar saltanatining go'zalligi va qudrati haqida xabarlar tarqatardi³.

Bu davrda asosiy yetishtirilgan ekinlar: bug'doy va arpa; paxta; uzum va bog'dorchilik mahsulotlari bo'lgan. Movarounnahr sharoitida sug'orma dehqonchilik hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Ariq va kanallar ta'mirlanishi, yangi sug'orish tarmoqlarining barpo etilishi yer maydonlarini kengaytirishga olib kelgan. Bu jarayon qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini oshirish va davlat soliq tushumlarini ko'paytirishga xizmat qilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ichki bozorni ta'minlash bilan birga, tashqi savdoda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqonlar asosiy kuch bo'lgan. Yerdan oqilona foydalanish va sug'orish tizimining samarali ishlashi hosildorlikning oshishiga xizmat qilgan. Natijada ichki bozor

³ Асқаров А. Темур ва Улуғбек даври тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент., 1996. 116-бет.



mahsulot bilan ta'minlangan va ortiqcha mahsulot savdo orqali iqtisodiy aylanmaga kiritilgan.

Mirzo Ulug'bek davrida yer munosabatlarida quyidagi tendensiyalar kuzatiladi: Markaziy hokimiyat nazoratining kuchayishi — iqto' va boshqa xizmat yerlari ustidan davlat nazorati mustahkamlangan. Moliyaviy barqarorlikka intilish — soliq tizimini tartibga solish orqali davlat daromadlari barqarorlashtirilgan. Diniy muassasalarning iqtisodiy roli oshishi — vaqf yerlari hisobiga madaniy va ilmiy markazlar rivojlangan. 1420 yil Ulug'bek o'z ixtiyori bilan yer va sug'orish kanallarini Samarqanddagi madrasa foydasiga o'tkazdi. Undan keladigan daromad mazkur madrasa xarajatlarini bir necha barobar qoplar edi. Vaqf yerlarini qayta ishlash nuqtayi nazaridan Ishratxona vaqf yorlig'i qiziqish uyg'otadi. Mana shu hujjatga muvofik (1464 y.) vaqfga Abu Said (1451-1469) qizi Sultonbeka sag'anasi foydasiga Saroy Malik qishlog'ining yaqin unga tegishli yerlar bilan birga o'tkazilgan. Shunga qo'shimcha ravishda 32 cho'rn, yerni qayta ishlash uchun 20 juft ho'kiz, 12 tuya va boshqa buyumlar berilgan. Ushbu vaqf xo'jaligining taqsimlovchi mutavallisi "Vaqfnoma"ga ko'ra Xovand Sultonbekaning o'zi bo'lib qoldi. O'ttiz ikki kishidan iborat qul va cho'rilar bundan buyon "ba'zilar ushbu qishloqda yer xo'jaligi ishlari bilan, boshqa birlari esa ushbu gumbazli binoda (Ishratxona) supurib-sidirish, yig'ishtirish va oshpazlik bilan mashg'uldirlar", deyiladi bir vaqf hujjatida. Vaqf yerlaridan olingan don vaqf mulki ehtiyojlari uchun sarflanishi, shundan qolgani esa vaqf yorlig'i shartlarida ko'rsatilgan holda pul bilan yil tugagandan keyin har bir qul va kanizak oilasiga berilgan hamda 24 man o'lchovida katta samarqandcha tarozuda uch xil don bug'doy, arpa, tariq tarqatilar edi. Har bir yolg'iz kishiga esa yil tugashi bilan pul (hujjatda mikdori ko'rsatilgan) va uch xil don 12 man o'lchovidan berilishi ko'rib chikilgan⁴.

Vaqf yorlig'ida qayd etilganiga muvofiq, mazkur holda vaqf yerlariga berilgan qayta ishlov o'sha vaqfda aytilgan qullarga va ishchi hayvonlarga yuklatilgan. Asosan vaqf yerlar, aniqrog'i ulardan soliq yig'ish uch yilgacha ijaraga

⁴ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ус-саъдайн ва мажмаъ ул-бахрайн. Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳли луғатлар А. Ўринбоевники. Тошкент, 1963. 128-бет.



berish sharti bilan dehqonlarga topshirilgan. Oxirgi shart shariatga asoslangan bo'lib, unga ko'ra biror kishi tomonidan uch yildan ortiq to'xtovsiz ishlov berilgan yer uning shaxsiy mulki bo'lib qolishi mumkin bo'lgan.

Shu bilan birga sunniy ruhoniylar roli ushbu davrda (XIV asr oxiri-XV asr) yuqori bo'lgan. Shuning uchun vaqf mulkiga egalik kilishni davlat miqyosida yuqori lavozimni egallagan a'yonlar vakillarigina hal qilgan. Mulkni egallashni ochik emas, ijara ko'rinishda amalga oshirishgan, ba'zan, oxir-oqibat vakf mulkining bir kismi boshqa bir kuchli hukmdor qo'lga o'tib qolishi mumkin bo'lgan.

Dehqonlar va chorvadorlar mamlakat aholisining asosiy qismini tashkil etar edi. Barcha soliq to'laydigan aholi kabi ular "ra'iyat" atamasini olgan, biroq, mulkiy munosabatda turli ijtimoiy qatlarga ajralar edi (chorakor, mutavallik, mulkdor va boshqalar). Chorakorlik bilan ijaraga olish asosida yerga qayta ishlov berish ular ko'pchiligining asosiy daromad manbai xisoblangan.

Yer sohiblarining ta'minlangan ko'p qismini dehqon deb ajratish keng tarqalgan. Abdurazzoq Samarkandiyning ta'kidlashicha, mamlakat obodonchiligi va kishilar xotirjamligini dehqonlar ushlab turar edi. Haqiqatdan, jamiyat asosini o'sha paytda amlokdor-dehqonlar tashkil etgan. Shunday fikrni keyinchalik Navoiy ham ta'kidlagan. "Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar"⁵ deydi Navoiy.

Navoiyning ta'kidlashicha, bir qancha dehqonlar amlokdorlar yerini qayta ishlash va hosil yig'ish bilan pul topishgan. Hatto qishloqda shunday kambag'allar bo'lganki, ular dalada qolgan boshoqlarni terib kun ko'rishgan.

Movarounnahrning madaniy vohasi ko'chmanchi dasht bilan yonma-yon edi. Kadimdan O'rta Osiyo vohasining o'troq, dehqon aholisi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlar bilan munosabatda bo'lishgan. Bu ularning iqtisodiy va etnik madaniy jihatdan o'zaro ta'sirini vujudga keltirdi.

Dehqonlarning iqtisodiy faolligini saqlab qolish — ortiqcha soliq bosimining cheklanishi ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlagan.

⁵ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳли луғатлар А. Ўринбоевники. Тошкент, 1963. 189-бет.



Mirzo Ulug‘bek davrida yer egaligi va agrar munosabatlar tizimi Temuriylar davlati iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. Yer egaligining turli shakllari — davlat, iqto‘, vaqf va xususiy mulk — o‘zaro muvozanatda faoliyat yuritgan. Soliq va sug‘orish tizimidagi islohotlar qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishga zamin yaratgan.

Shu tariqa, Mirzo Ulug‘bek davridagi agrar siyosat markazlashgan davlat tizimini qo‘llab-quvvatlovchi muhim iqtisodiy omil sifatida namoyon bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek davrida yer egaligi va agrar munosabatlar tizimi Temuriylar davlatining iqtisodiy asosini tashkil etgan muhim omil bo‘lgan. Yer mulkchiligining turli shakllari o‘zaro muvozanatda faoliyat yuritgan, soliq va sug‘orish tizimidagi tartib-intizom esa qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlagan. Natijada, mazkur davr agrar siyosatining xususiyati markazlashgan davlat manfaatlarini ta‘minlash va iqtisodiy barqarorlikka erishishga qaratilganligi bilan ajralib turadi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sultonov F., Bozorboyev F. O‘rta asrlar tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B. 428.
2. Муҳаммаджонов А. Амир Темур ва Темурийлар салтанати. – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1994. – Б. 65.
3. Асқаров А. Темур ва Улуғбек даври тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент:, 1996. 116-бет.
4. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ус-саъдайн ва мажмаъ ул-бахрайн. Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳли луғатлар А. Ўринбоевники. Тошкент, 1963. 128-бет.